ılmBAZA

Doktoranturaga qabul taqdimoti

PhD va DSc ga kiruvchilar uchun: taqdimotni qanday tayyorlash, nima baholanishi va qayerda ball yo‘qotiladi.

Bu nima va kimga kerak

PF-98 farmoniga ko‘ra (3-band “b”), ustuvor yo‘nalishlardagi ixtisosliklarga kirish imtihoni o‘rniga ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti asosida qabul qilinadi. Taqdimot – rejalashtirgan tadqiqotingiz haqida qisqa material: maqsadi, obyekti, ahamiyati va qanday bajarilishi.

Avval shuni aniqlang

- Ixtisosligingiz ustuvor yo‘nalishlar ro‘yxatida bormi (PF-98, 1-ilova).
- Taqdimot talablarini har bir oliy ta’lim va ilmiy tashkilot mustaqil belgilaydi (PF-98). Bu qo‘llanma namunaviy uslubiy ko‘rsatma asosida, u tavsiyaviy. Tashkilot qabul boshlanishidan oldin o‘z talablari bilan tanishtirishi kerak.

Taqdimot davlat tilida tayyorlanadi; tashkilot yo‘nalishi yoki ixtisoslikka qarab rus, ingliz yoki boshqa tilda ham bo‘lishi mumkin. Qabul hujjatlariga elektron shaklda ilova qilinadi.

Qanday baholanadi

- 100 ballik tizim. Har bir ko‘rsatkichda ball aniq shartlar bajarilganiga qarab qo‘yiladi.
- Komissiya: kamida 5 nafar mutaxassis. Har biri mustaqil baholaydi; yakuniy natija ularning o‘rtacha bali.
- Ikki bosqich: avval a’zolar topshirgan materialingiz bilan tanishib, dastlabki ball qo‘yadi; keyin og‘zaki taqdimot va savol-javob baholanadi.
- Ball pasaytirilsa, a’zo qaysi shart bajarilmaganini yozadi. Umumiy “yetarli emas” kabi izoh o‘rniga aniq shart ko‘rsatiladi.
- Taqdimot va savol-javobni videokuzatuv ostida o‘tkazish tavsiya etiladi; barcha talabgorlarga bir xil vaqt ajratiladi.

PhD taqdimoti: nimani yozish kerak

Sizdan ilmiy yangilik yoki tayyor natija talab qilinmaydi. Muammo asoslangan bo‘lishi, qismlar bir-biriga bog‘lanishi va reja bajarsa bo‘ladigan bo‘lishi muhim.

Bo‘lim	Nima bo‘ladi	Ball
Mavzu va talabgor	Tashkilot, F.I.O., qabul shakli, ixtisoslik shifri va nomi, mavzu.	–
Dolzarblik va o‘rganilganlik	Aniq muammo, uni tasdiqlovchi dalillar, mahalliy va xorijiy natijalar, o‘rganilmagan jihat, qisqa havolalar.	20
Maqsad va vazifalar	Bitta umumlashtiruvchi maqsad; unga olib boradigan, ketma-ket va takrorlanmaydigan vazifalar.	12

Bo‘lim	Nima bo‘ladi	Ball
Obyekt, predmet va qamrov	Nimani o‘rganasiz (obyekt) va uning qaysi jihatini (predmet); hudud, vaqt, ma’lumot chegarasi.	8
Metodologiya va usullar	Umumiy yondashuv, usullar, ularning vazifalar bilan bog‘liqligi, ma’lumot olish va tahlil tartibi.	20
G‘oya va ilmiy ahamiyat	Nimani tekshirasiz, mavjud ishlardan nimasi bilan farq qiladi, qaysi bilimni to‘ldiradi.	15
Bosqichlar va ish rejasi	Uch yilga taqsimlangan ishlar, oraliq natijalar, dissertatsiyani yakunlash, dastlabki ekspertiza va himoya.	10
Imkoniyat va yakuniy asoslash	Ma’lumot, baza, uskuna; uch yilda bajarish imkoni; cheklovlar; hamma qismlar bir-biriga mosligi.	5
Og‘zaki taqdimot va savollar	5 yo‘nalishda savol, har biri 2 balldan.	10

DSc taqdimoti: nimani yozish kerak

PhD dan asosiy farqi: avvalgi natijalaringizga tayanasiz, mavjud holatni tanqidiy tahlil qilasiz va kutilayotgan yangilikni aniq ko‘rsatasiz.

Bo‘lim	Nima bo‘ladi	Ball
Mavzu va talabgor	Tashkilot, F.I.O., qabul shakli, ixtisoslik, mavzu. Mavzu avvalgi ishlaringizning takrori bo‘lmasin.	–
Avvalgi natijalar	PhD yoki keyingi faoliyat natijalari, hal qilingan masalalar, yangi muammoga qanday o‘tgansiz.	10
Muammoning zamonaviy holati	Mahalliy va xorijiy natijalarning tanqidiy tahlili, mavjud yechimlar kamchiligi, asosiy muammo.	15
Konsepsiya, maqsad, vazifalar	Muammoni qanday nuqtayi nazardan hal qilasiz; maqsad konsepsiyadan, vazifalar maqsaddan kelib chiqadi.	12
Obyekt, predmet va qamrov	Obyekt, predmet, qamrov; ularning muammo va konsepsiyaga mosligi.	6
Metodologiya va usullar	Usullar ro‘yxati emas: qaysi vazifaga qanday ma’lumot kerak, qanday olinadi, natija qanday tekshiriladi.	16
Kutilayotgan ilmiy yangilik	Yangi natijalar kutilayotgan natija sifatida; mavjud va o‘z avvalgi natijalaringizdan farqi.	16
Ilmiy va amaliy ahamiyat	Ikkalasi alohida: fanga nima qo‘shadi va qayerda qo‘llanadi.	8
Strategiya va bosqichlar	Vazifalardan yangilikkacha bo‘lgan uch yillik mantiq, oraliq natijalar, ekspertiza va himoya.	7
Og‘zaki taqdimot va savollar	5 yo‘nalishda savol, har biri 2 balldan.	10

Eng ko‘p ball yo‘qotiladigan joylar

Baholash shartlaridan kelib chiqib, quyidagilarni alohida tekshiring:

- × Maqsad mavzu nomini takrorlaydi. Maqsad kutilayotgan ilmiy natija yo‘nalishini bildirishi kerak.
- × Dalil bor, manbasi yo‘q. Dolzarblik dalilining manbasi ko‘rsatilmasa, ball kamayadi.
- × Faqat mahalliy yoki faqat xorijiy tadqiqotlar. Ikkalasi ham kerak, ular taqqoslanib, xulosa chiqarilishi lozim.
- × Obyekt va predmet bir xil. Predmet – obyektning aniq o‘rganiladigan jihati.
- × Usullar shunchaki ro‘yxat. Qaysi usul qaysi vazifa uchun va undan nima chiqishi yozilsin.
- × “Ilk bor”, “mutlaqo yangi” iboralari. O‘rniga mavjud ishlardan aniq farqni yozing.
- × Rejada himoya yo‘q. Natijalarni umumlashtirish, dastlabki ekspertiza va kengashda himoya alohida ko‘rsatilsin.
- × Reja uch yilga sig‘maydi. Hajm va qamrov muddatga mos bo‘lsin.
- × DSc: natijalar o‘rniga nashrlar ro‘yxati. Qanday masalalar hal qilinganini yozing.
- × DSc: eski natija yangi deb ko‘rsatilgan. Avvalgi va kutilayotgan natijalarni aniq ajrating.
- × DSc: “adabiyot o‘rganiladi, tajriba o‘tkaziladi” kabi umumiy reja. Vazifalardan yangilikkacha bo‘lgan mantiq ko‘rinsin.

Og‘zaki taqdimotda

- Matnni o‘qib bermang: muammo, maqsad, yondashuv, kutilgan natija va rejani o‘zingiz tushuntiring.
- 5 ta yo‘nalishda savol kutiling: muammo, maqsad va vazifalar, metodologiya, g‘oya yoki yangilik, reja. Har biri 2 ball.
- 2 ball – bevosita va asoslangan javob; 1 ball – muhim jihat ochilmagan; 0 ball – javob yo‘q, savolga aloqasiz yoki o‘z fikringizni tushuntira olmadingiz.
- Sana, vaqt, format va ajratilgan daqiqalarni tashkilot e’lon qiladi. Oldindan vaqtni o‘lchab mashq qiling.

Shu qo‘llanma bilan birga

PowerPoint shablon (PhD, DSc) va o‘z-o‘zini tekshirish varaqasi (PhD, DSc) “Qo‘llanma va namunalar” bo‘limida.